

## SOLIQ TEKSHIRUVI – IJTIMOIY – ADOLAT TAMOYILLARI ASOSIDA

Akbarova Bibixon Adxamovna

Namangan tumanlararo ma'muriy sudi sudyasi.

Olimjonov Sherzod Baxramjon o`g`li

Sudya yordamchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11260435>

*Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda soliqqa oid huquqbazarliklarni sodir etish xavfi har qanday korxonada mayjud bo`lishi mumkinligi, shuningdek, ko`pchilik soliq to`lovchilar o`zлari bilmagan holda soliq xavfining oshib ketishi oqibatida soliq tekshiruviga tushib qolishlari, soliq tekshiruvlarining o`tkazilish tartiblari va shakllari, tekshiruv jarayonida adolat prinsplariga amal qilish zaruratlari haqida bayon qilingan*

*Kalit so`zlar: kameral soliq tekshiruvi, sayyor soliq tekshiruvi, soliq audit, soliq xavfini boshqarish tizimi.*

### TAX AUDIT - BASED ON THE PRINCIPLES OF SOCIAL – JUSTICE

*Abstract. In this article, the risk of committing tax offenses can exist in any enterprise today, as well as the fact that many taxpayers unknowingly fall into tax audits due to increased tax risks, procedures and forms of tax audits, and adherence to the principles of justice during the audit process. needs are stated*

**Key words:** camera tax audit, mobile tax audit, tax audit, tax risk management system.

### НАЛОГОВЫЙ АУДИТ – НА ОСНОВЕ ПРИНЦИПОВ СОЦИАЛЬНОЙ СПРАВЕДЛИВОСТИ

*Аннотация. В данной статье риск совершения налоговых правонарушений сегодня может существовать на любом предприятии, а также то, что многие налогоплательщики по незнанию попадают под налоговые проверки в связи с повышенными налоговыми рисками, процедурами и формами проведения налоговых проверок, соблюдением принципов справедливости. в процессе аудита определяются потребности.*

*Ключевые слова: камеральная налоговая проверка, мобильная налоговая проверка, налоговая проверка, система управления налоговыми рисками.*

### KIRISH

Soliqlar zamonaviy jamiyatning ajralmas tarkibiy qismidir. Chunki ular ushbu jamiyat o`zining muhim funksiyalarini bajarish uchun moliyaviy manbalari hisoblanadi. Uzoq vaqt davomida soliqlarni har bir jamiyat o`zining tartib qoidalar orqali tashkil etib kelingan.

Bu o`z navbatida tor doirada harakatlanuvchi mutaxassislar bilan chegaralangan va ko`pincha qattiq huquqiy asosga ega bo`lgan odamlar uchun ham tushunish qiyin bo`lib kelgan.

So`nggi paytlarda soliqlar yangiliklarni sarlavha ostiga olish bilan butun dunyoda fuqarolik jamiyatiga bo`lgan qiziqishni kuchaytirdi va soliqlarning aslida qanday ishlashini tushunishga bo`lgan qiziqishni kuchaytirmoqda.

Soliqlarni to`lash axloqiy burch bo`lishdan tashqari, har bir huquqiy tizim tomonidan tartibga solinadigan va shu bilan bog`liq holda yuzaga keladigan huquqlarni belgilaydigan ijobjiy doirada tartibga solinadigan huquqiy majburiyatdir. Ko`pincha daromadlarni oshirish funksiyasi soliqqa tortishning qonuniy o`lchamlariga soya soladi. Shunga qaramay, soliqlar muhim tarkibiy

qismni tashkil etadi, chunki u soliqlarni yig‘ish har bir jamiyatning asosiy qadriyatlari bo‘lgan qonun ustuvorligi va sivilizatsiyalashgan davlatlar tamoyillariga muvofiqligini ta’minlaydi.

Bizning fikrimiz shundan iboratki, ikkalasi ham zamonaviy soliq tizimida ajralmas hisoblanadi.

Soliqlarning amal qilishini bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida ikki holat bilan ifodalash mumkin: birinchidan, davlatning qator vazifalarini mablag‘ bilan ta’minlash zarurligi, ikkinchidan, bozor iqtisodiyoti qonun-qoidalari.

Soliq kodeksiga va yuqorida ta’kidlab o‘tilgan nizomga muvofiq tadbirkorlik sub’yektlarida o‘tkazilishi mumkin bo‘lgan soliq tekshiruvlarining quyidagi turlari mavjud:

- kameral soliq tekshiruvi;
- sayyor soliq tekshiruvi;
- soliq audit.

Kameral soliq tekshiruvi — bu soliq to‘lovchilar tomonidan soliqlar va yig‘imlar to‘g‘ri hisoblanishini, o‘z vaqtida va to‘liq byudjet tizimiga to‘lanishi yuzasidan soliq organi tomonidan o‘tkaziladigan tekshiruv. Kameral soliq tekshiruvi soliq to‘lovchi tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotlarini va soliq organida mavjud bo‘lgan soliq to‘lovchining faoliyati to‘g‘risidagi boshqa ma’lumotlarni o‘rganish va tahlil qilish asosida o‘tkaziladi.

Soliqlarning funksiyasini o‘rganish ularning iqtisodiyotdagi rolini ko‘rsatib bersa, soliqqa tortish tamoyillari soliq munosabatlarini amaliyotda tashkil etish, soliqqa tortish, uni undirish amaliyotining mazmunini ochi beradi.

Ko‘plab iqtisodchilar soliqqa tortish iqtisodiyotning ravnaqiga olib kelishi mumkin bo‘lgan tamoyillarni qayd etishgan. Soliqqa tortish tamoyillarini A.Smit o‘zining «Xalqlar boyligining sabablari va tabiatlari» nomli kitobida (1776) ilk bor asoslab bergan:<sup>1</sup>

1. Davlat fuqarolari davlat xarajatlarini qoplashda o‘zлари hukumat muhofazasida foydalanayotgan daromadlariga muvofiq tarzda qatnashishlari lozim.

2. Har bir odam to‘laydigan soliq aniq belgilab qo‘yilgan bo‘lishi kerak, bunda o‘zboshimchalik ketmaydi. Soliq miqdori, to‘lanadigan vaqt va tartibi uni to‘lovchiga ham, boshqa har qanday odamga ham birday aniq va ma’lum bo‘lishi zarur.

3. Har bir soliq to‘lovchiga har jihatdan qulay bo‘lgan vaqtda va tartibda undirilishi kerak.

4. Har bir soliq shunday tarzda o‘rnatalishi kerakki, bunda soliq to‘lovchining hamyonidan ketadigan pul davlat budjetiga kelib tushadigan mablag‘ga nisbatan ortiq bo‘lishiga mumkin qadar yo‘l qo‘yimasin.

Soliqqa tortishningadolatlilik tamoyiliga muvofiq, soliqlar jamiyat tomonidan oqilona vaadolatlidi deb tan olingen umumiyobyektiv qoidalarga binoan belgilanishi lozim. Soliqqa tortishningadolatlilik tamoyili asosiy guruhdagi soliqqa tortish tamoyillariga bo‘linadi. Bularni ikki guruhga bo‘lgan holda o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Bunda gorizontal va vertikaladolatni bir-biridan farqlash lozim.

Gorizontaladolat tamoyili daromad olishning turli sharoitlarida soliq to‘lovchilarga nisbatan soliqqa tortishning taxminan teng shartlarini qo‘llashni ko‘zda tutadi.

<sup>1</sup> <https://researchedu.org/index.php/openscholar/article/view/5124/6884>

Vertikal adolat deganda, xo‘jalik yuritishning birmuncha og‘ir sharoitlarida ishlayotgan subyektlar uchun soliqqa tortishning bir qadar yumshoqroq shartlarini, yengil daromad olish imkoniyatiga ega bo‘lgan subyektlar uchun esa og‘irroq shartlarni qo‘llash tushuniladi. Soliqlarning rag‘batlantirish funksiyasini bajarish doirasida ikkinchi tamoyil buzilishi mumkin.

Masalan, iste’mol tovarlari ishlab chiqarishni rag‘batlantirish maqsadida ularni ishlab chiqarish bo‘yicha soliqqa tortishda bir qadar imtiyozli shartlar yoki aksincha, vino-aroq va tamaki mahsulotlarini iste’mol qilishni cheklash uchun ulardan olinadigan egri soliqlarning yuqori stavkalari belgilangan hollar ham bo‘ladi.

Amaldagi “Soliq kodeksi”ning 10-moddasiga asosan “Adolatlilik tamoyili”ga quyidagicha ta’rif berilgan: Soliqlar va yig‘imlar kamsitish xususiyatiga ega bo‘lishi hamda ijtimoiy, irqi, milliy, diniy va boshqa shu kabi mezonlardan kelib chiqqan holda qo‘llanilishi mumkin emas.<sup>2</sup>

Mulkning shakliga, jismoniy shaxslarning fuqaroligiga yoki kapitalning kelib chiqish mamlakatiga qarab farqlangan soliq stavkalarini, soliq imtiyozlarini yoki boshqa afzalliklarni belgilashga yo‘l qo‘yilmaydi. Shuningdek, fuqarolarning o‘z konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishiga to‘sinqinlik qiladigan soliqlarni belgilashga yo‘l qo‘yilmaydi.

Adolatlilik tamoyili — daromadlariva hukumat dasturlaridan foydalanish darajasi bo‘yicha teng bo‘lgan kishilar teng miqdorda soliq to‘lashi zarur.<sup>3</sup>

Ijtimoiy adolat tamoyilini amalga oshirishga turlicha yondashuvlar bo‘lishi mumkin. Agar soliqlarni to‘plangan soliqlar hisobidan ro‘yobga chiqariladigan davlat dasturlaridan keyinchalik foyda ko‘radigan shaxslar to‘lasa, u holda adolatli deb hisoblanadi. Aytaylik, respublika yo‘l jamg‘armasiga tushadigan mablag‘ni davlat katta yo‘llarni ta’mirlashga yoki qurishga sarflasa, bundan jamg‘armaga ajratmalarni to‘lovchilarning o‘zлari-avtomobil egalari naf ko‘radi. Biroq bunday yondashuvni keng miqyosda amalga oshirishning iloji bo‘lmaydi. Huquq-tartibotni mustahkamlash, maorifni rivojlantirish, atrof-muhitni qo‘riqlashdan aniq ravishda kim ko‘proq foyda ko‘rishini qanday qilib hisoblab chiqish mumkin? Hatto bepul sog‘liqni saqlash dasturlaridan, asosan, ko‘p bolali oilalar, keksa va nochor fuqarolar foydalanishlari aniqlab chiqilgan taqdirda ham ana shu maqsadlar uchun maxsus soliqlarni aynan ularning o‘zidan undirishni talab qilish adolatdan bo‘lmaydi, albatta.

Soliqqa tortishdagagi adolat tamoyili ba’zi hollarda taqsimotdagagi ijtimoiy adolat tamoyili ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Shuni ta’kidlab o‘tish o‘rinligi, bu tamoyilni daromadlarni teng ravishda taqsimlash, baravarlashtirish deb tushunmaslik kerak.

Qonun oldida tenglikka rioya etilishi, ijtimoiy mumtozlikka, irq va dinga munosiblikka asoslangan imtiyozlarning bekor qilinishi, inson assosiy huquqlarga birday ega bo‘lishi kabi tenglik tamoyillari bo‘lib, ular O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlab qo‘yilgan va bu tamoyillar qadriyatlarning ijtimoiy tizimida qat’i amal qilmog‘i lozim. Moddiy tenglik, ya’ni daromadlar, mulk, iste’mol sohasidagi tenglik haqida gap ketadigan bo‘lsa, aytish kerakki, bunday tenglikka erishib bo‘lmaydi.

Davlat va jamiyat barcha fuqarolar yaxshi hayot kechirishlari uchun zarur shart-sharoit yaratib berishlari kerak, albatta, soliqqa tortish tizimi esa istiqbolga mo‘ljallangan rejada aholining

<sup>2</sup> <https://lex.uz/docs/-4674902>

<sup>3</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Soliq>

farovonligini umumiylar tarzda amalga oshirish orqali jamiyat quyi qatlamlarining ahvoli izchil ravishda yaxshilanib borishiga ko‘maklashmog‘i zarur.

### **XULOSA**

Soliq qonunchiligi jismoniy shaxslar daromad turlarining barchasiga nisbatan imkon qadar neytral va teng munosabatda bo‘lishi zarur. Shunda, birinchidan, soliqqa oid tartib-taomillarning muayyan iqtisodiy faoliyat turini asossiz rag‘batlantirmasligiga yoki aksincha, jazolamasligiga erishiladi.

Fuqaro daromadlarini soliq omili emas, uning iqtidor va layoqatlari, bozordagi talab hamda taklif va boshqalar belgilay boshlaydi. Ikkinchidan, soliq to‘lovchilarining tegishli qonun hujjatlariga itoatkorligi, hurmati oshadi. Uchinchidan, budjetga jismoniy shaxslardan tushadigan soliq tushumlari ko‘payadi.

### **REFERENCES**

1. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. –T.:«Adolat», 2008-y.
2. Vahobov A.V, Jo‘rayev A.S.Soliqlar va soliqqa tortish Toshkent: Sharq, 2009. —448 b.
3. Jo‘rayev A., Meyliyev O., Safarov . Soliq nazariyasi —T.: TMI, 2004. —210 b.
4. Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amaliyot. «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2005 .544 b
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Soliq>